



SAMARQAND VILOYATI QO‘SHRABOT TUMAN HOKIMINING QARORI

Qo‘shrabot sh., G‘afur G‘ulom ko‘chasi, 3-uy

2022 - yil 11 - mart

55-7-97-Q/22

Qo‘shrabot tuman hokimligi

Qo‘shrabot tumani hokimligi boshqaruva apparati tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirish kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli Qarori hamda viloyat hokimining 2022-yil 4-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 90-7-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 4-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 90-7-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qo‘shrabot tumani hokimligi tashkiliy tuzilmasida tuman hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i lavozimi kiritilsin.

3. Qo‘shrabot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Sayfiddinov), tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (T.Jaxonov)lar tuman hokimligining vazifalar taqsimotiga belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritish, tuman hokimining o‘rinbosari

- Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘ining funksional vazifalarini belgilab bersin.
- 4. Qo‘shrabot tumani hokimligining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- 5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021-yil 30-dekabrdagi 113-7-97-Q/21-sonli qarorining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
- 6. Ushbu qaror xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.
- 7. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.


Tuman hokimi



X.Okbutayev

Qo'shrabot tuman hokimining
2022 yil 11 martdagি
55-7-97-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Qo'shrabot tumani hokimligi boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilmasi



*Tuman hokimining o'rinosari maqomiga tenglashtirilgan.

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – **30 nafar**.

Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi boshqaruv xodimlari soni – **5 nafar**.

Har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchilari soni – **45 nafar**.